

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

MUZLATGICH KAMERALI SOVUTGICH

Sovutgichni ishlatishdan oldin ushbu qollanmani diqqat bilan o'qib chiqing va kelgusida undan ma'lumot olish uchun uni saqlab olib qo'ying.

	KIRISH	Registratsiya	4
		Xavfsizlikka oid muhim yo'riqlar	5
		Identification of Parts	9
	ULASH	O'rnatish	10
		ULASH	10
	ISHLATISH	BOSHQARUV PANELI	12
		• Haroratni boshqarish	13
		• Tezkor muzlatish	13
		• Tejamkorlik rejimi	14
		• ESHIK ZICH YOPILMAGANLIGI HAQIDA OGOHLANTIRISH SIGNALI	14
		• O'z-o'zini sinash testi	15
		OLINADIGAN SHISHALI POLKALARNI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH	15
		SOVUTGICH KAMERADAGI TORTMA QUTINI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH	15
		MUZLATGICH KAMERADAGI TORTMA QUTINI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH	16
		Muz tayyorlash	16
Qarash va texnik xizmat ko'rsatish		Oziq-ovqat saqlashga oid takliflar	17
		Energiya tejovchi usul	17
		Tozalash	17
		Umumiy ma'lumot	18
		SOVUTGICH ISHLASHIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR	18
Eshiklar ochiladigan tomonni o'zgartirish		Eshiklar ochiladigan tomonni o'zgartirish	19
Nosozliklarni bartaraf etish		Nosozliklarni bartaraf etish	21
		Sovutgichni chiqindiga chiqarish	22
AQLLI DIAGNOSTIKA		AQLLI DIAGNOSTIKA (Opsiya)	23

Registratsiya

Model va seriya raqamlarini ichki korpus yoki ushbu qurilma muzlatgich bo'lmashining orqa tarafidan topish mumkin. Ushbu raqamlar faqat shu qurilmaga xos bo'lib, ularni boshqa qurilmalardan topib bo'lmaydi. Siz ushbu ma'lumotlarni yozib qo'yishingiz va xaridingizning doimiy yozuvi sifatida saqlab qo'yishingiz kerak. O'z chekingizni bu yerga yopishtirib qo'ying.

Xarid qilish sanasi : _____

Sotgan diler : _____

Diler manzili : _____

Diler telefon raqami : _____

Model raqami : _____

Seriya raqami : _____

Xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhim ko'rsatmalar

▲ Bu xavfsizlik to'g'risida ogohlantirish belgisi. U sizni yoki boshqalarni jarohatlashi yoki mahsulotni shikastlashi mumkin bo'lgan xatarlar to'g'risida ogohlantiradi. Barcha xavfsizlik xabarlaridan avval xatar to'g'risidagi XAFVLI, OGOHLANTIRISH va DIQQAT so'zlari keladi. Bu so'zlar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

▲ OGOHLANTIRISH

Ko'rsatmalarga amal qilmaslik o'limga yoki jiddiy jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

▲ DIQQAT

Agar oldini olinmasa, yengil yoki o'rtacha jarohatlanishga yoki mahsulotning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatni ko'rsatadi.

▲ OGOHLANTIRISH

- Ushbu muzlatgich foydalanishdan oldin ushbu qo'llanmaga berilgan o'rnatish to'g'risidagi ko'rsatmalarga muvofiq to'g'ri o'rnatilishi va joylashtirilishi shart.
- Barcha xavfsizlik xabarlarini xatarlarni ko'rsatadi, jarohatlanish xavfini qanday kamaytirish mumkinligi va ko'rsatmalarga amal qilinmagan hollarda nimalar bo'lishi mumkinligini aytib beradi.
- Qurilmadan foydalanganda yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki shaxslarning jarohatlanishi xavfini oldini uchun ehtiyot choralariga, jumladan quyidagilarga amal qilish lozim. Ushbu qurilmadan foydalanishdan avval barcha ko'rsatmalarni o'qib chiqing.
- Quvvat simi shikastlangan bo'lsa, xatarni oldini olish uchun u ishlab chiqaruvchi yoki uning agenti yoki boshqa shunga o'xshash texnik tomonidan almashtirilishi kerak.


Elektr tarmog'iga ulaganda Alohida rozetkadan foydalanish kerak.

Bitta rozetkaga bir nechta qurilmani ulash yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



O'qib ketishlardan elektr himoya taomni shikastlashi va dozator oqib ketishi mumkin.

Suvning oqib kirishi yoki elektr tarmog'iga ulash kabelining shikastlanishi yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabelining bukilishi yoki og'ir ob'ektlar tomonidan bosib qolinishiga yo'l qo'ymang.

Bu elektr tarmog'iga ulash kabelining shikastlanishiga va yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabeli uzunligini uzaytirmang yoki o'zgartirmang.

Elektr tarmog'iga ulash kabeli yoki boshqa qismlarning shikastlanishi elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Shnurni tortmang yoki elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasiga ho'l qo'llaringiz bilan tegmang.

Bu elektr toki urishi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasidan suv yoki changlarni olib tashlang va uni rozetkaga mustahkam ravishda tiqing.


Chang, suv yoki mustahkam ulamaslik yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Yerga ulanganligiga ishonch hosil qiling.

Noto'g'ri yerga ulash buzilishiga yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Noto'g'ri yerga ulash buzilishiga yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Quvvat simi yoki quvvat simi vilkasi shikastlansa, yoki devor rozetkasi teshiklari bo'shab kengayib qolsa, ulardan foydalanmang.

Bu elektr toki urishi yoki qisqa tutashuv va natijada yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



Muzlatgich kamerali sovutgichdan foydalanganda Muzlatgich kamerali sovutgich ustiga og'ir predmet yoki xavfli predmetlarni (suv solingan idish) qo'ymang.

Sovutgich eshigini o'chish yoki yopish vaqtida u yerga tushib ketishi va jarohat, yong'in yoki elektr toki urishiga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgich eshigi yoki eshik polkalari yoki muzlatgich kamerasi yoki sovutgich kamerasiga osilmang.

Bu muzlatgich kamerali sovutgichning yerga qulashiga yoki uning ushlagichlarining shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bolalarning bunday qilishiga yo'l qo'ymang.



Muzlatgich kamerali sovutgichni ho'l yerda yoki suv yoki yong'ir sachrashli mumkin bo'lgan yerda o'rnatmang.

Elektr toki o'tadigan qismlarda izolyatsiya holatining yomonlashuvi elektr tokining sizib yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin.



Muzlatgich ichiga yoki yaqiniga benzin, spirt, suyultirilgan gaz, pardoz buyumlari kabi yonuvchan narsalarni joylashtirmang.

Bu portlash yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Muzlatgichga biror bir tirik hayvonni tiqmang.



Muzlatgich kamerali sovutuvgich ichidagi yoqimsiz hidni yo'qotish maqsadida uning ichiga sham yoqib qo'ymang. Sovutgich ichini quritishda quritgich apparatdan foydalanmang yoki sovutgich ichidagi hidni yo'qitish maqsadida uning ichida sham yo'qumang.



Bu portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.


Muzlatgich kamerali sovutgichda dori vositalari yoki akademik materiallarni saqlamang.

Sovutgichda haroratini qat'iy nazorat qilib borish kerak bo'lgan material saqlanganda, uning holati buzilishi yoki u kutilmagan reaksiyani berib, xavf keltirib chiqarishi mumkin.



Muzlatgich kamerali sovutuvgich yaqinida yonuvchan spreylan foydalanmang.


Bu yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



Gaz oqib chiqqan hollarda muzlatgichga yoki rozetkaga tegmang va darhol xonani shamollating.


Uchqun chiqishi natijasida portlash yoki yong'in chiqishi mumkin.

Ushbu muzlatgichda xattoki ozgina miqdori ham (80~90g) bo'lgan tabiiy gazdan (R600a) atrof-muhitga zararsiz sovutuvchi vosita sifatida foydalaniladi. Muzlatgichni yetkazib berish, o'rnatish yoki undan foydalanish vaqtidagi shikastlanish vaqtida gaz chiqqan hollarda haq qanday uchqun portlash yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Muzlatgich ichiga yoki tashqarisiga suv sepmang yoki uni benzin yoki erituvchilar bilan tozalamang.

Elektr qismlaridagi izolyatsiyalarning yemirilishi elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Sovutgichni ko'tarishda uning old tag qismi va orqa tepa qismidagi ushlagichdan ushlab ko'taring.

Aks holda u qo'ling'izdan sirpanib, jarohat yetkazishi mumkin.




Sovutgich eshigini o'chish yoki yopish vaqtida uning yaqinida bo'lgan insonga jarohat yetishi mumkin, ehtiyot bo'ling.

Eshikni ochish yoki yopish chog'ida qo'l yoki oyoq eshik orasiga qolib qisilishi mumkin yoki eshik qirrasini tegib yosh bola jarohat olishi mumkin.



Muzlatgichdan g'alati hid yoki tutun chiqqan hollarda darhor muzlatkich vilkasini rozetkadan uzib va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Bu yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Malakali texnikdan boshqa hech kimning sovutgich qismlarini ochish, tuzatish yoki almashtirishiga yo'l qo'ymang.

Bu tan jarohati, elektr toki urishi yoki yong'iniga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichdan maishiy maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanmang (dori vositalari yoki sinov materiallarini saqlash, kemada foydalanish va hokazolar kabi).

Bu yong'in, elektr toki urishi, saqlangan material holatining buzilishi yoki kimyoviy reaksiya kabi kutilmagan xavflarga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichni chiqindiga tashlayotganda, o'ram materiallarini uning eshigidan olib tashlang.

Bu bolaning uning ichida qamalab qolishiga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichni qattiq va tekis yuzali yerga o'rnatang.

Sovutgichni tagi bo'sh yoki notekis yerga o'rnatmang, uning eshigini o'chish yoki yopish vaqtida u yerga yiqilishi va o'lim holatlarigacha sabab bo'lishi mumkin.




Sovutgichning sovuq havo chiqish teshigi, korpusi, tag qismiga, uning orqa tomonidagi issiqlik o'tkazmaydigan panjaraga (chiqarish teshigi) qo'l yoki tayoqsimon metall predmet tiqmang.

Bu elektr toki urishi yoki tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.



Isitish qurilmalaridan uzoqroq yerdagi joylashtiring. Yonuvchan gaz oqib chiqadigan joylar kabi olov manbalaridan uzoq bo'lgan joylarda o'rnatang.

Bu yong'iniga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgich tag qismiga qo'lingizni tiqmang.

Uning tag qismidagi po'lat list tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.



Muzlatgich kameradagi oziq-ovqat yoki idishlarga ho'l qo'l bilan tegmang.

Bu tana to'qimasining sovuq urishiga sabab bo'lishi mumkin.




⚠️ DIQQAT!

Ushbu ko'rsatmaga amal qilmaslik jarohatlanish yoki uy hamda mebelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
Iltimos, doimo ehtiyotkor bo'ling.

Muzlatgichni chiqitga chiqarish uchun mahalliy chiqindilarni to'plash xizmatiga murojaat qiling.

Elektr jihozari yoki mebel singari katta maishiy buyumlarni chiqitga chiqarishda mahalliy chiqindilarni to'plash xizmatiga murojaat qilganingiz ma'qul.



Muzlatgich kameradagi oziq-ovqat yoki idishlarga ho'l qo'l bilan tegmang.

Bu tana to'qimasining sovuq urishiga sabab bo'lishi mumkin.



Quvvat simi vilkasini qayta ulamoqchi bo'lsangiz, 5 yoki undan ko'proq daqiqa kutib turing.

Bu muzlatgichning ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.



Quvvat simini rozetkadan uzishda simdan emas, balki vilkadan ushlab tortib sug'uring.

Bu elektr toki urishi yoki qisqa tutashuv va natijada yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



Muzlatgich kamerali sovutuvgich yaqinida yonuvchan spreylan foydalanmang.

Siqib chiqaruvchi yonuvchan gaz mavjud aerosol ballonlar kabi portlovchi moddalarni sovutgichga qo'ymang.



Bu yong'inga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu muzlatgich kamerali sovutgichning ichki lampasini tozalash, olish yoki almashtirish vaqtida quvvat simi vilkasini rozetkadan uzing.

Bu elektr toki urishi yoki tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu muzlatgich kamerali sovutgich ichki lampasini almashtirayotganda, rozetka ichida elektr uchquni chiqishini oldini oluvchi rezina halqacha chiqib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.



Momaqaldiroq yoki chaqmoq bo'lganda yoki sovutgich uzoq muddat foydalanilmaydigan bo'lsa, quvvat simi vilkasini rozetkadan uzib qo'ying.

Aksi holda, yong'in yoki elektr toki urishi mumkin.




Muzlatgich kamerali sovutgich ustiga gul vaza, choynak, kosmetika mahsulotlari, dori-darmonlar yoki suv solingan idish qo'ymang.

Sovutgich ustiga predmet tushib ketib elektr toki urishi, tan jarohati yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgich eshigini o'chish yoki yopish vaqtida uning ichidagi o'ng'aysiz joylashtirilgan predmetlar tushib ketishi va tan jarohatiga sabab bo'lishi mumkin.

Sovutgich ustiga predmet tushib ketib elektr toki urishi, tan jarohati yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



Zarurat tug'ilganda, sovutgichni tezda elektrdan uzish qulay bo'lishi uchun devor rozetkasi o'ng'ay joyda bo'lishi lozim.

Sovutgichning bir eshigi birdaniga keskin tarzda yopilganda, ikkinchi eshigi ochilib ketishi mumkin, chunki sovutgich kameralari havo quvuri kanallari orqali bir-biriga ulangan.

⚠️ DIQQAT!

Ushbu sovutgich maishiy uy sharoitlari va shunga o'xshash sharoitlarda foydalanishga mo'ljallangan, jumladan, do'konlar, ofislar va boshqa ishxonalarda xodimlar uchun oshxonalarda; fermadagi turar joylarda va mehmonxonalarda va boshqa turar-joylarda; kichik mehmonxonalarda; umumiy ovqatlanish joylari va shunga o'xshash joylarda.

⚠️ DIQQAT!

Agar qurilmadan xavfsiz foydalanishni biladigan va u bilan bog'liq xavfni tushunadigan kishilar nazorati yoki ko'rsatmasi ta'minlanadigan bo'lsa, 8 va undan katta yoshdagi bolalar, jismoniy, hissiy yoki aqliy qobiliyati cheklangan va yoki tajribasi av bilimi yetishmaydigan kishilar ham undan foydalanishi mumkin. Bolalar qurilma bilan o'ynashi mumkin emas. Bolalar nazoratsiz tarzda qurilmani tozalashi va texnik xizmat ko'rsatishi mumkin emas.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Jihoz korpusidagi va ichidagi ventilyatsiya teshiklari bekilib qolmasin.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Jihozda sovutuvchi agent va izolyatsiyalovchi purkovchi gaz qo'llanilganligi bois, uni alohida belgilangan tartibda chiqindiga chiqarish talab etiladi. Chiqindiga chiqarish vaqti kelganda, texnik xizmat ko'rsatuvchi agent yoki boshqa shunga o'xshash texnik bilan bog'laning.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Muzdan eritish jarayonini tezlashtirish uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan mexanik qurilmalar yoki boshqa vositalardan foydalanmang.

⚠️ OGOHLANTIRISH!

Sovutuvchi agent sirkulatsiyalanadigan zanjirga shikast yetkazmang.

⚠️ OGOHLANTIRISH!


Jihozning oziq ovqat saqlanadigan kameralari ichida elektr qurilmalarini ishlatmang, agark i o'sha elektr qurilma ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan qurilma bo'lmasa.



Jihoz tarkibida kam miqdordagi izobutan sovutish agenti (R600a) va ekologik tozaligi yuqori bo'lgan, ammo baribir yonuvchan bo'lgan tabiiy gaz mavjud. Jihozni tashish va o'rnatish vaqtida, sovutish agenti sirkulatsiyalanadigan zanjirning hech bir qismiga shikast yetmasligini ta'minlash uchun ehtiyot bo'lish lozim. Trubachalardan otilib chiquvchi sovutish agenti kuydirishi yoki ko'zga shikast yetkazishi mumkin. Agar sovutish agenti oqib chiqayotgan teshik joy topilsa, ochiq alanga yoki o't olishga olib keluvchi manbalarni yo'q qiling va jihoz turgan xonani bir necha daqiqa shamollating.

Sovutuvchi agent aylanadigan zanjirda teshik hosil bo'lgan bo'lsa, yonuvchan gaz havo aralashmasining hosil bo'lishini oldini olish uchun jihoz qo'yilgan xona o'lchami jihozda foydalanilgan sovutuvchi agent miqdoriga bog'liq. Jihozdagi har 8g R600a sovutish agenti uchun 1m² xona hajmi talab etiladi. Jihozdagi sovutish agenti miqdori uning ichidagi pasport ma'lumotlari tablochasida ko'rsatiladi. Jihozda shikastlanish belgilar namoyon bo'lsa, uni aslo ishga tushirmang. Agar shubha tug'ilsa, dilerga murojaat qiling.

Sovutgich qismlari



Izoh

Qismlar, funktsiyaalr va opsiyalar modelga qarab farq qiladi.
Sizdagi modelda ayrim opsiyalar bo'lmisligi mumkin.

O'RNATISH

- Cheklovchi tirgaklarni, 1-rasmda ko'rsatilganidek, sovutgich orqa devorining yuqori burchaklariga o'rnatish. Tirgaklar sovutgich kamerasiidagi eshik savatida yetkazib beriladi;
- Sovutgichni qo'yish uchun mos joyni tanlang. Sovutgichni undan foydalanish qulay bo'lgan yerga joylashtiring.
- Sovutgich boshqa bir predmedga o'rnatiladigan jihoz emas. Havo aylanishni ta'minlash va elektr iste'molini kamaytirish uchun sovutgichning tepa, orqa va yon tomonlarida 5 sm dan kam bo'lmagan bo'shliq bo'lishi kerak. 2-rasm;
- Sovutgichni issiqlik manbalari yaqinida va bevosita quyosh nuri tushadigan va yuqori namlik mavjud yerda o'rnatmang;
- Qo'llanmada ko'rsatilgan elektr kuchlanishi xonadoningizdagi elektr tarmog'i parametrlariga muvofiq ekaniga ishonch hosil qiling;
- Sovutgich orqa tomonidagi yumaloq nakleykalarni olib tashlamang. Ular texnologik teshiklarni bektigan holda dekorativ funksiyani bajaradi;
- Vibratsiya vujudga kelishini oldini olish uchun sovutgich tekis holda turishi kerak. Agar zarur bo'lsa, baravarlovchi vintlarni burab, pol notekisligini o'rni to'ldiring. Eshikning yopilish turishi uchun sovutgichning old tomoni orqa tomoniga nisbatan biroz balandroq bo'lishi lozim. Sovutgichni sal qiyalatgan holda baravarlovchi vintlarni osonlik bilan burash mumkin. Sovutgichni ko'tarish uchun vintlarni soat mili yo'nalishiga teskari yo'nalishda (↺), tushirish uchun esa soat mili yo'nalishida (↻) burang.
- Ushbu muzlatgich kamerali sovutgich atrofi bo'ylab yaxshi havo aylanishini ta'minlash uchun uning ikki yon tomoni va tepa qismida yetarlicha bo'sh joy qolishini ta'minlang va uning orqa tomoni va devor o'rtasida kamida 2 dyuym (5 sm) bo'sh joy qolishi lozim.


- Foydalanishdan oldin sovutgichni yaxshilab yuving;
- Kubiksimon muz bo'lakchalari qutichasi va hokazo shu kabi aksessuarlarni o'z joyiga qo'yib chiqing. Jo'natish vaqtida bu aksessuarlarga shikast yetishini oldini olish uchun ular bitta qilib o'rnamga o'ralladi.
- Quvvat simini (vilkani) devor rozetkasiga ulang. Bitta rozetkaga bir nechta jihozlarni ulamang.

ULASH


Sovutgichni ilk bor o'rnatgandan so'ng, unga sof yoki muzlatilgan oziq-ovqatlarni joylashdan oldin uni normal ishlash haroratiga moslashishi uchun 2-3 soat qo'ying. Agar sovutgich elektr tokidan uzilsa, uni qayta elektr tarmog'iga ulashdan oldin 5 minutcha kuting. Va nihoyat, endi sovutgichingizdan foydalanaverishingiz mumkin.

Lampani almashtirish

Agar svetodiodli lampaga shikast yetsa, u texnik xizmat ko'rsatuvchi markaz tomonidan almashtirilishi kerak.



1-rasm. Cheklovchi tirgaklarni o'rnatish



2-rasm. Sovutgichni devorga o'rnatish

IZOH

Cheklovchi tirgaklar sovutgich kamerasidagi eshik savatida joylashgan.


Ushbu tirgaklar yuqori sovutgich ishlash samaradorligiga erishish uchun o'rnatilishi lozim.

BOSHQARUV PANELI

Tashqi svetodiodli (LED) display



Ichki display




HARORATNI BOSHQARISH

Sovutgich va muzlatgich kameralari haroratining dastlabki holati, mos ravishda, 3 °C va -20 °C. Agar xohlasangiz, tegishli kameradagi haroratni boshqarish tugmasini bosgan holda uni o'zgartirishingiz mumkin.

Tashqi svetodioldli display



Ichki svetodioldli display



IZOH

Svetodioldli displeyda ko'rsatilgan harorat mo'ljal qiymat hisoblanadi, chunki sovutgichga qo'yilgan oziq-ovqatlarning harorati va eshikning qanchalik tez-tez ochib-yopilishi kabi tashqi omillar ta'sirining intensivlik darajasiga bog'liq holda sovutgich ichidagi asl harorat o'zgarib turadi. Yoqilgandan so'ng, sovutgich 2-3 kun ichida belgilangan rejimga tushadi.

TEZKOR MUZLATISH

Oziq-ovqatlarni tezkor sur'atlarda muzlatish zarurati tug'ilganda, ushbu funksiyadan foydalaniladi.

"Tezkor muzlatish/Tejamkorlik rejimi" tugmasini (tashqi displeydagi) yoki "Tezkor muzlatish" tugmasini (ichki displeydagi) bir marta bosib, "TEZKOR MUZLATISH" lampasi yonadi va tezkor muzlatish jarayoni boshlanadi.

Tezkor muzlatish 24 soatcha davom etadi.

Ushbu jarayon tugallanishi bilan sovutgich avtomatik ravishda oldingi holatga (oldingi o'rnatilgan harorat rejimiga) qaytadi. Agar tezkor muzlatish jarayonini to'xtatmoqchi bo'lsangiz, "Tezkor muzlatish/Tejamkorlik rejimi" (tashqi displeydagi) yoki "Tezkor muzlatish" tugmasini (ichki displeydagi) yana ikki marta bosib.

Lampa o'chadi va tezkor muzlatish jarayoni to'xtaydi hamda sovutgich oldingi holatga (oldingi harorat rejimiga) qaytadi.

Tashqi svetodioldli display



Ichki svetodioldli display



TEJAMKORLIK REJIMI

Elektr energiyasini tejash rejimini ishga tushiradi, bu rejim, uzoq vaqtga biror yerga ketadigan bo'lsangiz, ancha qulaydir. U elektr energiyasi sarfini kamaytirish imkonini beradi.

"Tezkor muzlatish/Tejamkorlik rejimi" tugmasini (tashqi displeydagi) ikki bor yoki "Tejamkorlik rejimi" tugmasini (ichki displeydagi) bir marta bosib.

Lampacha yonadi (TEJAM REJIM).

Ushbu tugmani takror bosganingizda, bu funksiya o'chadi.

Tashqi svetodiodli display



Ichki svetodiodli display



"TEJAM. REJIM"ni yoqish uchun "Tezkor muzlatish/Tejamkorlik rejimi" tugmasini bosib.

IZOH

"TEJAM. REJIM"ni yoqilganda, boshqa tugmalar ishlamaydi. Sovutgichni oldingi harorat rejimiga qaytarish uchun "TEJAM. REJIM" tugmasini bosib.

IZOH

Elektr energiyasini tejash uchun tashqi displey energiyani saqlash rejimiga o'tadi – "QULF"dan tashqari boshqa barcha indikatorlar ort chiroqlari o'chadi.

ESHIK ZICH YOPILMAGANLIGI HAQIDA OGOHLANTIRISH SIGNALI

- Sovutgich eshigi 30 daqiqa davomida ochiq qolganda, ogohlantiruvchi signal yangraydi.
- "OVOZLI SIGNAL" tugmasini qisqa bosgan holda eshik zich yopilganligi haqidagi signal funksiyasini yoqishingiz va o'chirishingiz mumkin (barcha modellarda ham mavjud emas);
- Sovutgich eshigini yopgandan keyin ham signal chalinishda davom etaversa, servis markaziga murojaat qiling.

Tashqi svetodiodli display



"QULF"

(svetodiodli displeyli modellar uchun)

- "QULF" tugmasi qo'shilganda, boshqa tugmalar ishlamaydi;
- Sovutgich displeyini qulflash/qulfdan ochish uchun "QULF" tugmasini 3 soniya bosib turing.



IZOH


Elektr energiyasi ta'minoti o'chganda, rejim sozlamalari saqlanib qoladi.

O'Z-O'ZINI TASHXIS QILISH


Display o'z-ozini tashxis qilish funksiyasiga ega. Agar sovutgichda nosozlik bo'lsa, tugmalar ishlamaydi va indikator nosozlik kodini ko'rsatadi. Bu holatda, sovutgichni elektr tokidan uzmag va darhol mahalliy servis markazi bilan bog'laning. Agar sovutgichni o'chirsangiz, undagi nosozlik yuzaga kelgan elementni aniqlashi uchun texnik xizmat ko'rsatuvchi ustaga ko'p vaqt kerak bo'lib qolishi mumkin.

OLINADIGAN SHISHALI POLKALARNI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH

Sovutgichdan polkani olish uchun uni ushlab turib ozgina ko'taring (1) va tortib oling (2). Polkani noto'g'ri tarzda olsangiz, sovutgich ichki qismlariga shikast yetishi mumkin.




Sovutgichga polkani o'rnatish uchun xuddi shu taxlit harakatni amalga oshiring: avval polka old chekkasini ushlab turib ozgina ko'taring (3) va uni sovutgich tomon itaring (4). Polkani noto'g'ri tarzda o'rnatangiz, sovutgich ichki qismlariga shikast yetishi mumkin.




SOVUTGICH KAMERADAGI TORTMA QUTINI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH

Sovutgich kameradan pastki tortma qutisini olish uchun quyidagilarni bajaring:

- Eshikdagi pastki savatni tepaga ko'targan holda uni chiqarib oling;
- Tortma qutini old tomonidan ushlab ko'targan va o'zingizga tortgan holda uni oxirigacha torting;



- Tortma qutini qopqog'ini old tomonidan ushlab ko'taring va uni chiqarib oling;



- Tortma qutini qaytib joyiga o'rnatish uchun xuddi shu harakatlar ketma-ketligini teskarisiga bajaring.

⚠ DIQQAT!

Bunda ehtiyot bo'ling, qiyshayish bo'lmasin. Torma qutini noto'g'ri tarzda olish yoki o'rnatish sovutgich ichki qismlariga shikast yetishi mumkin.

Ikki yulduzli bo'linma (☆☆) (faqat bazi modellar uchun)

- Ikki yulduzli bo'linma deb 12°C~18°C sharoitda bo'lgan bolinma tshunuladi
- Muzlatilgan mahsulotlar faqat qisqa muddatli saqlash uchun.

IZOH


Kafolat sovtutgichni saqlash, tashish, ishlatish va unga texnik xizmat ko'rsatish hamda haddan ortiq jismoniy kuch ishlatish natijasida yuzaga kelgan mexanik shikastlarni (yoriqlar, sinish, ezilish, ochish izlari va h.k.) o'z ichiga olmaydi.

MUZLATGICH KAMERADAGI TORTMA QUTINI OLIB QO'YISH VA O'RNATISH

Ko'p miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatgich kameralaga joylashtirish zarur bo'lganda, o'rta tortma qutini olib qo'yishingiz va oziq-ovqatlarni bevosita pastki tortma qutiga solingan oziq-ovqatlar ustiga joylashtirishingiz mumkin.


Muzlatgich kameraladan pastki tortma qutisini olish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Tortma qutini oxirigacha taqalguncha torting;
2. Tortma qutini old tomonidan ushlab torting.



Tortma qutini muzlatgich kameralaga qaytib o'rnatish uchun xuddi shu harakatlar ketma-ketligini teskarisiga bajaring:

1. Tortma qutini yo'naltirgichlar ustiga 45° burchak ostida qo'ying;
2. Tortma qutining old tomonini yo'naltirgichlarga parallel holatda pastroq tushiring;
3. Tortma qutini ichkariga taqalguncha itaring. Bunda ehtiyot bo'ling, qiyshayish bo'lmasin.



⚠️ DIQQAT!

Tortma qutilar va polkalarni olishda keragidan ortiq kuch ishlatmang – bu sovtutgichga shikast yetishiga olib kelishi mumkin.


Muz tayyorlash

Kubiksimon muz donalarni tayyorlash uchun muz qolipchasini ko'rsatilgan chiziqqacha suvga to'ldiring va uni muzlatgichga qo'ying.



Agar muz kubiklarni iloji boricha tezroq tayyorlash kerak bo'lsa, "TEZKOR MUZLATISH" funksiyasini yoqing.

Muz kubiklarni qolipdan chiqarib olish uchun muz qolipchasini chekkasidan ushlab sekin qiyalating.



⚠️ DIQQAT!

Suv bakiga faqat ichimlik suvi solish mumkin.

Maslahat

Kubiksimon muz donalarini qolipdan chiqarish oson bo'lishi uchun qolipchani qiyalatishdan oldin unga ozroq suv quyung.

Oziq-ovqat saqlashga oid takliflar

- Banan, qovun kabi past haroratda tez buziladigan oziq-ovqatlarni sovutgichga qo'ymang.
- Issiq ovqatni qo'yishdan oldin uni sovutib va keyin qo'ying. Issiq ovqatni sovutgichga qo'ysangiz, ovqat buzilishi mumkin, shuningdek, bu elektr quvvatining ko'p sarflanishiga olib keladi.
- Ovqatni sovutgichga qo'yganda, uni qopqoqli idishga solib, keyin qo'ying. Bu ovqatdagi namlikning parlanishini oldini oladi va uning o'z ta'mi va nutrientlarining saqlanib qolinishiga yordam beradi.
- Havo aylanadigan ventilyatsiya teshiklarini oziq-ovqat bilan to'sib qo'ymang. Sovuq havoning bir maromda aylanishi ushbu muzlatgichli sovutgich haroratini bir xilda bo'lishini ta'minlaydi. Sovutgich eshigini ha deb oshavermang.
- Eshikni ochsangiz, kamera ichiga issiq havo kiradi va kamera ichida haroratning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.
- Haroratni boshqarish regulatorini burashga xalaqit qilmagligi uchun uning yaqiniga oziq-ovqatlarni joylashtirmang.
- Aslo eshik polkasiga haddan tashqari ko'p oziq-ovqatni joylab tashlamang, bu eshikning to'liq yopilishiga yo'l qo'ymasligi mumkin. Muzlatgich kamerada butilkalar qo'ymang – ular muzlaganda, yorilishi mumkin. Muzdan eritilgan oziq-ovqatlarni qayta muzlatmang. Bu oziq-ovqat ta'mi va undagi oziq moddalarning yo'qolishiga sabab bo'ladi.
- Yangi oziq-ovqat mahsulotlarini tezda muzlatish zarur bo'lib qolsa, ularni muzlatgich kameraning pastki tortma qutisiga qo'ying va "TEZKOR MUZLATISH" tugmasini bosib;
- Yangi ozMuzlatilgan oziq-ovqatlar muzlatgich kamerada o'ramga o'ralgan holatda (polietilen plyonkada, alyuminiy folgada va h.k.) saqlanishi lozim.
- Muzlatgich kameradagi yuqori tortma quti hajmi "ikki yulduzcha" seksiyasi hisoblanadi. Ushbu seksiya ichidagi harorat -12°C dan oshmaydi. Oziq-ovqatlarni saqlashda buni hisobga olish lozim.

Energiya tejovchi usul

- Sovutgichni soya, salqin va havo yaxshi aylanadigan yerga o'rnatib.
- Zarur bo'lmasa, eshikni ko'p martalab ochib yopavermang.
- Eshikni uzoq vaqt ochiq qoldirmang, eshikni iloji boricha tezroq yoping.
- Issiq ovqatni oldin sovutib, keyin sovutgichga qo'ying. Sovutgichga haddan ortiq oziq-ovqatni qalashtirib tashlash tavsiya etilmaydi. Sovuq havo erkin aylanishi uchun yetarlicha bo'shliq bo'lishi lozim.
- Sovutgich haroratini keragidan ortiq past darajaga o'rnatmang.

- Harorat sensori yaqiniga oziq-ovqat qo'ymang. Chuqur muzlagan oziq-ovqatni eritish uchun uni sovutgich kameraga qo'ying; bu oziq-ovqat sovutgich kamerani salqin holatda bo'lishiga hissa qo'shadi. (Faqat ayrim modellargagina tegishli)
- Issiqlik almashinuvi joyida ekaniga ishonch hosil qilish uchun orqa devor va antikondensat quvurni vaqti-vaqti bilan (yiliga bir marta) tozalab turing. (Faqat ayrim modellargagina tegishli)
- Ventilyatsiya teshiklarini oziq-ovqat bilan to'sib qo'ymang. (Faqat ayrim modellargagina tegishli)

Tozalash

Tozalashdan oldin

Quvvat simini rozetkadan uzganligingizga ishonch hosil qiling.

Tashqi qismi

Sovutgichning tashqi qismini issiq suvda yoki suyuq tozalovchi vositada ho'llangan yumshoq latta bilan tozalang.

Agar tozalovchi vositadan foydalansangiz, sovutgichni, albatta, toza ho'l latta bilan arting.

Tozalashdan keyin


Quvvat simi shikastlanmaganligini, rozetka qizib ketmaganligini va quvvat simi vilkasi rozetkaga mustahkam tiqilganligini tekshiring.

⚠ DIQQAT!

1. Sovutgichni suv bilan yuvgandan keyin uni, albatta, yumshoq latta bilan artib quring. Jilvir material, kerosin, benzin, suyultirgich modda, gidrokslorid kislotasi, qaynoq suv, dag'al cho'tka va hokazolardan foydalanmang, zero ular sovutgich qismlariga shikast yetkazishi mumkin.
2. Tashqi yuzasi zanglamaydigan po'lat bo'lgan jihozlarni tozalashda toza gubka yoki yumshoq latta hamda iliq suvda yumshoq tozalovchi vositadan foydalaning. Jilvir yoki dag'al tozalagichlardan foydalanmang. Yuvi bo'lgach, ho'lni yumshoq latta bilan yaxshilab arting. Zanglamaydigan metall yuzalarni tozalashda mum, oqartiruvchi vositalar yoki tarkibida xlor bo'lgan boshqa vositalardan foydalanmang.

VITAMIN PLYUS (IXTIYORIY)

Tarkibida antioksidant modda mavjud bo'lib, u oksidlanish jarayonini oldini oladi va bu meva va sabzavotlarni uzoq muddat sof holda saqlash imkonini beradi. Bu qism tarkibida antioksidant modda mavjud bo'lib, uni ichga yutishdan saqlanib. Eshikni ko'p marotaba ochib, yopish uning xizmat ko'rsatish muddatini qisqartirishi mumkin.



Umumiy ma'lumot

Electric power failure.

- 1~2 soatlik elektr tokining yo'q bo'lishi saqlanayotgan oziq-ovqatlarga zarar yetkazmaydi. Bu vaqtda sovutgich eshigini iloji boricha kamroq oching.

BOSHQA JOYGA KO'CHGANDA:

- Sovutuvgichdan barcha oziq-ovqatlarni va boshqa predmetlarni chiqarib oling. Ichki olib qo'yiladigan qismlarni (polkalar, tortma qutilar, eshik savatlari) mustahkam qotirib;
- Pol va sovutgichning sozlanuvchan oyoqchalariga shikast yetishini oldini olish uchun ularni tashishdan oldin soat mili yo'nalishiga teskari yo'nalishda burang;
- Tashish vaqtida sovutgichning zarb yeyishi va yuk mashinasi ichida qulashini oldini olish uchun uni yuk mashinasida mahkam qotirish lozim;
- Sovutgich usti yopiq transportda vertikal holatda tashilishi lozim.
- Tashish vaqtida sovutgichning zavodda o'ralgan o'ramiga shikast yetmasligi lozim.
- Sovutgichni ortish va tushirish vaqtida uni zarb yeyishdan saqlash lozim.

YOQISHDAN OLDIN:

- Agar sovutgich havo sovuq vaqtda tashilgan bo'lsa, uni iliq haroratli xonada o'rmondan oching va 12 soatgacha yoqmay turing.

⚠ DIQQAT!

Sovutuvgich ishlab turgan vaqtda uni ko'chirmang yoki qiyalatmang. Kompresorda shovqin bo'lishi mumkin. Bu holat kompressorning ishlash qobiliyatiga ta'sir etmaydi.

SOVUTGICH ISHLASHIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Sovutgich tarkibiy qismlarining harorat deformatsiyalari natijasida qarsillash tovushi eshitilishi mumkin.

Harorat sozlagich va kompressorning ishga tushishi natijasi hosil bo'ladigan xarakterli tovushlar normal holat bo'lib, ular jihozdagi elektr uskunalarining ishlashi chog'ida hosil bo'ladi.

Sovutish tizimi ichida aylanadigan sovutuvchi agent past qulqullagan tovish chiqarishi mumkin, hatto, kompressor ishlamayotgan bo'lsa ham.


Xavotir olmang, bu butunlay normal holat.

Sovutgich ishlayotgan vaqtda quyidagi tovushlar chiqishi mumkin:

- Harorat datchigi/relesi ishlashidan kelib chiquvchi qirsillash;
 - Sovutish tizimi quvurchalarida aylanuvchi sovutuvchi agent chiqaradigan shildirash tovushi;
 - Materiallarning harorat deformatsiyalaridan n paydo bo'luvchi yengil chirsillash tovushi.
- Bu tovushlar qandaydir nuqson bilan bog'liq emas va ular funksional xarakterga ega.

Antikondensat truba

- Kameralar ichida ho'llik hosil bo'lishini oldini olish uchun sovutgich old tomoni bo'ylab, shuningdek, sovutgich va muzlatgich kameralar o'rtasida antikondensat truba o'rnatilgan.
- Ayniqsa, sovutgichni o'rnatgandan so'ng yoki ob-havo harorati yuqori bo'lgan vaqtda, sovutgich issiq bo'lishi mumkin, bu umuman normal holat.



Antikondensat truba


Eshiklar ochiladigan tomonni o'zgartirish

Sovutgich shunday loyihalanganki, uning eshiklarini, oshxonangiz sxemasiga bog'liq holda, o'ng yoki chapdan ochiladigan qilish mumkin.

⚠️DIQQAT!


1. Eshikni narigi tomonga ilishdan oldin, eng avvalo, sovutgichdan barcha oziq-ovqatlarni chiqarib oling va barcha mahkamlanmagan aksessuarlarni (polkalar va tortma qutilar) olib qo'ying.
2. Boltlarni mahkamlash va bo'shatishda 10 mm li gayka kaliti yoki qoplamali kalitdan foydalaning.
3. Muzlatgichni polga yotqizmang.
4. Ochish yoki yig'ish jarayonida ehtiyot bo'ling, eshikni tushirib yubormang.

1. Tapa oshiq-moshiq ❶ qopqog'i burama mixini ❷ bo'shatgan holda oshiq-moshiq qopqog'ini ❶ yeching va ulovchi kabelni ❸ uzing (faqat tashqi displeyli modellar uchun). Tapa oshiq-moshiqni ❹ qotiruvchi boltlarni ❸ bo'shatish va eshikni o'rta oshiq-moshiqdan ❻ ehtiyotkorlik bilan yechib oling. Tiqinni ❸ yechib oling.




2. Tapa oshiq-moshiq ustki qopqog'ini ❷ yechib oling (faqat tashqi displeyli modellar uchun), kabelni ❸ torting va uni eshikning narigi tomonidagi teshikka o'rnatgich. Tapa eshik ustki qopqog'ini ❷ joyiga o'rnatgich.

Sovutgich kamera eshigidan ❶ plastik vtulkani ❷ oling. Sovutgich eshigi tepasida joylashgan burama mixni ❸ bo'shatish va eshik tiragagini ❹ narigi tomonga o'tkazing. Burama mixni ❸ mahkamlang. ❷ va ❹ plastik vtulkalarni (faqat ichki displeyli modellar uchun) narigi tomonga o'tkazing.




3. (Faqt tashqi displeyli modellar uchun). Yassi otvertka bilan old paneldan ❶ qalpoqchalarni ❷ bosish va ajratish va burama mixlarni ❸ bo'shatish, panelni ❶ yeching, kabelni ❸ narigi tomonga o'tkazing. Panelni ❶ joyiga o'rnatgandan keyin burama mixlarni ❸ mahkamlab qotiring va ularning kallaklarini qalpoqchalar ❷ bilan bekiting.




4. O'rta oshiq-moshiq boltlarini ❷ bo'shatish, o'rta oshiq-moshiqni yeching va muzlatgich kamera eshigini ❸ ko'tarib yechib oling. Tiqinni ❹ oling va uni yechib olingan o'rta oshiq-moshiq ❷ o'rni o'rnatgich.


Pastki oshiq-moshiq **23** shtirini **22** soat mili yo'nalishiga teskari yo'nalishda burab boshating va shtirni narigi tomondagi teshikka burab kirg'izing. Pastki oshiq-moshiqni **23** qotiruvchi boltlarni **24** va sovutgich korpusidagi bolti **25** bo'shating. Eshikning pastki qismidagi muzlatgich kamera **8** eshigi o'lchamiga yetkazgichni **29** qotiruvchi burama mixni **10** bo'shating. Eshikning pastki qismidagi muzlatgich kamera **8** eshigi tirgagini **9** qotiruvchi burama mixni **10** bo'shating, tirgakni **9** narigi tomondagi maxsus belgilangan joyga o'tkazing va uni qotiring. O'lchamiga yetkazgichni **29** narigi tomondagi maxsus joyga iling va qotiring. Tepa qalpoqchani **26** narigi tomonga o'tkazing.



5. Yechib olingan pastki oshiq-moshiqni **23** korpusning narigi tomonida joylashgan teshiklarga biriktiring va oshiq-moshiqni boltlar **24** qotiring. Narigi tomondagi korpusdagi burama mixni **25** mahkamlang. Muzlatgich kamera **8** eshigini pastki oshiq-moshiq shtiriga **23** o'rnatang. Yechib olingan o'rta oshiq-moshiqni **18** o'qini tashqariga qaratgan holda oching va oshiq-moshiqni boltlar **17** bilan qotiring (boltlarni ehtiyot bo'lib qotiring, eshikni qirib yubormang). Shaybani **16** o'rta oshiq-moshiqqa **18** o'rnatang.



Sovutgich kamera **8** eshigini, eshikning pastki qismidagi teshik va o'rta oshiq-moshiq shtirini **18** bir chiziqda tekislagan holda, o'rnatang. So'ng, sovutgich o'ramida birga beriladigan tepa oshiq-moshiqni **27** o'rnatang, buning uchun sovutgich kamera **8** eshidagi tegishli tepa teshikka shtirni qo'ying. Kabel konnektorlarini **5** ulang (faqat tashqi displayli modellar uchun). Tepa eshik oshiq-moshog'ini **27** boltlar **3** bilan qotiring. Tepa eshik oshiq-moshog'i chap qopqog'ini **29** o'rnatang va uni bolt **2** bilan qotiring. Sovutgich to'plamida birga beriladigan tiqinni **28** o'rnatang.



Izoh

Sovutuvgich eshigini narigi tomondan ochiladigan qilib qayta o'rnatish kafolat taloni bo'yicha ko'rsatiladigan texnik xizmatga kirmaydi.

Ta'mirlovchi ustani chaqirishdan oldin quyidagi ro'yxatni tekshiring

Bu ham vaqtni va ham xarajatlarni tejashi mumkin.

Ushbu ro'yxatda ko'pincha sodir bo'ladigan nosozlik holatlari berilgan bo'lib, bu nosozliklar ishlab chiqarish sifati yoki mahsulotda qo'llanilgan materiallar sifatiining pastligi natijasuda kelib chiqmaydi.

Muammo Mumkin bo'lgan sabablari

**Sovutgich
ishlamayapti**

- Quvvat simi vilkasi devor rozetkasidan uzilib qolgan bo'lishi mumkin.
Vilkani rozetkaga yaxshilab ulang.
- Predoxranitel u'zilgan yoki zanjir avtomat uzilgan bo'lishi mumkin.
Predoxranitelni tekshiring va/yoki almashtiring yoki zanjir avtomatni qaytib ulang.
- Elektr toki ta'minoti uzilgan.
Uydagi chiroqlarni tekshiring.

**Sovurgich yoki
muzlatgich kamera
harorati juda yuqori**

- Harorat sozlagich kerakli holatga o'rnatilmagan.
Haroratni boshqarish sahifasiga qarang.
- Sovutgich issiqlik manbaiga yaqin joylashtirilgan.
- Issiq ob-havo sharoitida sovutgich eshigi ko'p marta ochib-yopilgan.
- Eshik uzoq vaqt ochiq qoldirilgan.
- Oziq-ovqatlar eshikning yopilishiga yo'l qo'ymayapti yoki muzlatgich kameradagi havo kanalini to'sib qo'ygan.
- Sovutgich notekis yerga o'rnatilgan yoki sovutgich barqaror holatda qo'yilmagan.
Sovutgichning baravarlovchi vintlarini burab uni tekislang.
- Sovutuvgichning orqa tomonida keraksiz predmetlar qo'yilgan.

**Sovutgichda vibratsiya
bor yoki undan dirillagan
yoki g'ayrioddiy shovqin
eshitilyapti**

**Muzlagan oziq-ovqat
ustida qirov yoki muz
kristallari hosil bo'lyapti**

- Eshik ochiq qoldirilgan yoki oziq-ovqat eshikning yopilishiga yo'l qo'ymayapti.
- Eshik haddan tashqari ko'p ochib-yopilgan yoki uzoq vaqt ochiq qoldirilgan.
- Oziq-ovqat o'rami ichida qirov hosil bo'lishi normal holat.

**Kamera devorlarida
ham hosil bo'lmoqda**

- Bu holat ko'proq ho'l yerlarda kuzatiladi.
Quruq sochiq bilan artib tashlang.

Muammo**Kamera ichida
nam to'planyapti****Sovutgichda hid bor****Eshik to'g'ri yopilmayapti****Kamera ichidagi
lampa ishlamayapti****Mumkin bo'lgan sabablari**

- Eshik haddan tashqari ko'p ochib-yopilgan yoki uzoq vaqt ochiq qoldirilgan.
- Namchil ob-havo sharoitida, eshik ochilganda, kamera ichiga havo bilan birgan nam ham kiradi.
- O'tkir hidli oziq-ovqatlarni qopqoqli idishga solib yoki o'rab, keyin sovutgichga qo'yish kerak.
- Tekshiring, kamera ichida ovqat to'kilgan bo'lishi mumkin.
- Sovutgich ichini tozalash zarur.
TOZALASH sahifasiga qarang
- Oziq-ovqat paketi eshikni yopilishiga qo'ymayapti. Eshik yopilishiga xalaqit qiluvchi oziq-ovqatlarni boshqa joyga oling.
- Sovutgich tekis holat turmayapti
Baravarlovchi vintlarni burab tekislang.
- Sovutgich notekis yerga o'rnatilgan yoki sovutgich barqaror holatda qo'yilmagan.
Baravarlovchi vintlar yordamida sovutgich old tomonini birozgina ko'taring.
- Rozetkada tok yo'q.
- Yoritish lampasini almashtirish zarur.
Lampani almashtirish sahifasiga qarang

Sovutgichni chiqindiga chiqarish

1. Barcha elektronika va elektr mahsulotlari hukumat yoki mahalliy hokimliklar tomonidan belgilangan, munitsipal chiqindi oqimidan alohida bo'lgan, chiqindi to'plash punktlari orqali chiqindiga chiqarilishi lozim.
2. Jihozni ko'zda tutilgan tartibda chiqindiga tashlash atrof-muhit yoki inson salomatligiga xavf soluvchi salbiy oqibatlarni oldini olishga yordam beradi.
3. Jihozni ko'zda tutilgan tartibda chiqindiga tashlash haqida batafsil ma'lumot olish uchun shahringiz hokimligi, chiqindi to'plash xizmati yoki ushbu jihozni xarid qilgan do'konga murojaat qiling.

AQLLI DIAGNOSTIKA

Agar sovtug'ichingizda muammo bo'lsa, unda telefoningiz orqali ma'lumotni LG xizmat markaziga yuborish imkoniyatiga ega. Bu narsa sizga bevosita mutaxassislarimiz bilan ishlash imkonini beradi. Mutaxassis uskunangizdan uzatilgan ma'lumotni yozib oladi va muammo tahlil qilishda foydalanib tez va samarali tashxis qo'yib beradi.

Agar sovtug'ichingizda muammolar bo'lsa, LG mijozlarga ma'lumot berish markazining telefon raqamiga qo'ng'iroq qiling. Aqlli diagnostika xususiyatidan faqat LG qo'ng'iroq markazining agenti tomonidan ko'rsatma berilgan taqdirdagina foydalaning. Uzatish xuddi faks orqali yuborilgan ovozdek yuboriladi.

Aqlli diagnostika sovtug'ichingiz quvvati yoqilmaguncha ishga tushmaydi. Agar sovtug'ichingiz yoqilmasa, muammo Aqlli diagnostikasiz hal etilishi kerak.

Aqlli diagnostikadan foydalanish


Avval, LG mijozlarga ma'lumot berish markazining telefon raqamiga qo'ng'iroq qiling. Aqlli diagnostika xususiyatidan faqat LG qo'ng'iroq markazining agenti tomonidan ko'rsatma berilgan taqdirdagina foydalaning.

- 1 Ekranni bloklash (Opsiya).
Ekranni bloklab qo'yish uchun, Bloklash tugmasini uch soniya davomida bosib ushlab turing (Ager ekran besh daqiqa davomida bloklanib qolsa, siz blokni o'chib so'ngra qaytadan bloklashingi kerak bo'ladi).



- 2 Sovtug'ich eshigini oching.

- 3 Qo'ng'iroq markazi tomonidan ko'rsatma berilganda, telefoningiz mikrofonini sovtug'ich eshigining o'ng tarafidagi karnayga ushlab turing.



- 4 Telefoningizni karnayga ushlab turib muzlatgichning Harorat tugmasini uch soniya davomida bosib ushlab turing.



- 5 Uch marta signal eshitganingizdan so'ng, Muzlatgichning Harorat tugmasini qo'yib yuboring.
- 6 Telefoningizni ohang uzatilishi nihoyasiga yetgunga qadar ushlashda davom eting. Bu taxminan 15 soniya davom etadi va ekrandan vaqt qisqarishi aks etadi. Vaqt qisqarishi tugab tovush to'xtaganida, sizga ma'lumotni uzatishda yordam berayotgan mutaxassis bilan gapingizni davom ettiring.

! IZOH

- Yaxshiroq natija olish uchun, tovush uzatilayotgan paytda telefoningizni qimirlatmang.
- Agar qo'ng'iroq markazi agenti aniq yozib olingan ma'lumotni olomasa, sizdan qaytadan yuborishingizni so'rashi mumkin.

! IZOH

- Mintaqa bo'ylab qo'ng'iroq sifatodagi farqlar, funksiyaga ta'sir etishi mumkin.
- Yaxshiroq muloqot va xizmat ko'rsatish sifatiga erishish uchun simli telefondan foydalaning.
- Qo'ng'iroqning yomon sifati telefoningizdan mashinaga yomon ma'lumot uzatishga sabab bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida Aqlli diagnostikaning yomon ishlashiga olib kelishi mumkin.